QIZIQCHILIK SAN'ATI XUSUSIDA FIKRLAR

Hamidjon Ro'ziboyev,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqoladan o'zbek an'anaviy teatri qiziqchilik san'ati yo'nalishida faoliyat olib boruvchi qiziqchi va qiziqlar haqida fikrlar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *Qiziq, qiziqchi, masxaraboz, sahna, tomoshabin.*

Аннотация: *В данной статье собраны мнения о тех, кто интересуется искусством традиционного узбекского театра.*

Ключевые слова: *Смешно, юморист, клоун, сцена, публика.*

Abstract: *This article contains opinions from those interested in the art of traditional Uzbek theatre.*

Key words: *Funny, humorist, clown, stage, audience.*

Kulgi barcha zamonlarda ham insonlarga hush kayfiyat ulashgan. O'zbek qiziqchilik tarixi rivojlanishini XVIII-XIX asrlar bilan bog'laydigan bo'lsak, o'sha davr xalq havaskorlik teatrlarida faoliyat olib boruvchi masxaraboz va qiziqchilarining ham asosiy maqsadi mehnatkash xalq ommasiga kulgu ulashish bilan birga ularni qiynayotgan muammolarini kulgi orqali sahnaga olib chiqish kabi bir qator maqsadlar uchun ham xizmat qilgan.

Qiziqchilik san'atida ham "ustoz-shogird" an'anasi uning yashovchanligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Taxminan XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Farg'ona vodiysida Deydiyor shum, keyinchalik Zokir Eshon to'dasida Sa'di mahsum, Davlat novcha kabi yigirmadan ortiq masxaraboz va qiziqchilar ijod qilgan. Ushbu to'dadan bo'lgan Sa'di maxsum shogirdlaridan esa Yusufjon qiziq Shakarjonov ushbu merosni o'zi boshchilik qilgan tarkibida Abdujalil hoji, Sulaymon qori, Mamajon maxsum, Usmon qori va Oxunjon qiziq kabi 50 ga yaqin qiziqchilar bo'lgan to'da a'zolariga o'rgatgan. XX yillarning ikkinchi yarmida esa Komiljon Qulijonov, Pulatjon Normatov, A'ham qiziq, Aka Buxor Bokirov, Muhiddin qiziq Darveshovlar ijod qilib, mustaqillik yillarida esa Xojiboy Tojiboyev, Mirzabek Xolmedov,

Obid Asomov, Abdulla Akbarov, Shukrullo Isroilov kabi o‘nlab qiziqchilar samarali faoliyat olib bordilar.

Tarixdan to bugungacha ayrim qiziqchilar ismiga “qiziq” taxallusi qo‘yib aytiladi. Qiziqchilarni ushbu nom bilan e’tirof etilishi sabablari bo‘yicha bir qator izlanishlar olib bordik. Asosiy maqsadimiz “qiziq” va “qiziqchi” kim ekanligini aniqlash bo‘ldi.

“Qiziq” so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan:

QIZIQ I 1. Kishini hayron qoldiradigan, ajablantiradigan. *Tabiat juda qiziq, o‘z saxovatini zaminning barcha yeriga birdek in’om etaveradi.* Gazetadan. *Xayol... qiziq narsa, u o‘zining tutqich bermas qanotlarida ba’zan kishini uzoq-uzoqlarga olib uchadi.* S.Zunnunova, Yangi direktor.

7. *ayn*. **qiziqchi**. *Yusuf(jon) qiziq. Oxun qiziq. – Ulug‘bek o‘tkazgan katta bir to‘yda qiziqlar. Cholg‘uchilar, askiyachilardan tashqari, bir ayol ashula aytib... hammani mast-u shaydo qilgan ekan.* K.Yashin, Hamza. *Birdan xon va raiyat kulib yubordilar, bu kishi Xudoyorning eng yaxshi qizig‘i Zokir gov edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qiziq” so‘ziga berilgan barcha ta’riflarni ketma-ketlikda yozsak, “Kishini hayron qoldiradigan, ajablantiradigan, qiziqish uyg‘otadigan, diqqatni tortadigan; qiziqarli, zavq, kulgi qo‘zg‘atadigan, ko‘ngil ochadigan, maroqli, qiziqarli, g‘ayrioddiy, ajablantirarli, g‘alati, taajjub, hayronlikni bildiradi va aynan qiziqchi” kabi ma’nolar kelib chiqadi. Bundan ko‘rish mumkinki, “qiziq” so‘zi bugungi kunda biz muomalada foydalanayotgan “qiziqchi” kasbiga ega bo‘lgan shaxs ma’nosini anglatmoqda. Izohli lug‘atda “qiziq” so‘ziga berilgan yettinchi ta’rifda esa aynan “qiziqchi” deb aniq bayon etilgan.

Bu haqda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi professori Ma’mur Umarovning fikrlari quyidagicha - “Muhsin Qodirov o‘z izlanishlarida “qiziq”lar masalasiga to‘xtalib, ular to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni to‘pladi. Olim “qiziq” hamda “qiziqchilar” degan ma’lumotni bir vaqtda berib ketadi. Mantiq bo‘yicha unvonga sazovor bo‘lmaganlar havaskor qiziqchi bo‘lib qolishi kerak edi. Aktyor ijrosiga “*-chi*” qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan qiziqlar ijrosi ham havaskorlik

darajasiga tushib qolyapti. Demak bu yo‘nalishni “Qiziqlar san’ati” deb alohida o‘rganish kerak. Havaskorlar – qiziqchi deb atalishi kerak yoki “So‘z ustasi” deyilishi ma’qul bo‘ladi. Bu jarayonni ijrochilarning imkoniyatlari hamda mahoratidan kelib chiqib turli bosqichlarga bo‘lish lozim.

Avvalo “havaskor”likdan boshlab, keyin “so‘z ustasi”, so‘ngra “askiyada ishtirok etish qudratiga ega bo‘lish”, ana endi “qiziq” degan darajaga ko‘tarilsa mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Hozirga qadar bu atamalar farqi ajratilmagani uchun bu yo‘nalishdagilarni birov “qiziq” deydi, boshqasi “qiziqchilar” deydi. Ahir “*-chi”* qo‘shilganidan keyin san’at so‘zini ishlatib bo‘maydiku. “Qiziqchi” deyilsa, demak “havaskor” deyilyapti, hali u qiziq darajasiga ko‘tarilmagan. Havaskor ijrosiga nega “san’at” atamasini ishlatilishi kerak? Huddi shu ahvol bir qator san’at turlariga – “maqomchilik”, “baxshichilik”, “rassomchilik” shaklida xato ishlatilib kelinyapti. Axir “*-chi”* qo‘shimchasini qo‘shish orqali “maqomchilik san’ati” deyishimiz to‘g‘ri bo‘lmaydi, “maqom san’ati” deb foydalanish lozim. “Baxshichilar san’ati” deb foydalanish o‘rniga, “baxshilar san’ati” degani to‘g‘ri bo‘ladi. Axir davlat professional rassomlarni tayyorlashni boshlaganda “Toshkent teatr va rassomlik instituti” deb atadi. Bizlar esa rassomchilik deb kelyapmiz. Shuningdek, “Jadidchilar harakati” emas, “jadidlar harakati” deyish lozim. Chunki, sovet tuzumidan qolgan bir xunuk o‘lchov bor, “*-chi”* qo‘shimchasini qo‘shish bilan – “Senlar havaskor darajasida edilaring, biz senlarga madaniyat olib kirdik, senlarni professional darajaga ko‘tardik, senlarni biz san’atkorga aylantirdik” – deb o‘z mafkurasini “san’at” deb tan oldirgan. Bu tuzumgacha bo‘lgan ijodiy jarayon “havaskor”lik darajasi deb belgilangan.”

Ma’mur Umarovning fikrlari naqadar asosli ekanligiga oydinlik kiritish uchun yana bir bor izohli lug‘atga murojaat etamiz.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qiziqchi” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

QIZIQCHI 1. Qiziq harakatlari va so‘zlari bilan kishilarni kuldiruvchi odam. *Dadasi juda qiziqchi kishi.* E.Raimov, Ajab qishloq. *Ilgari ovchilik qilgan bir qiziqchi yigit mudirlikni qabul qilgandi.* S.Ahmad, Muzey.

QIZIQCHILIK 1. Qiziqchi ishi, kasbi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, “qiziq” va “qiziqchi” so‘zlarini umumiy bog‘lab turuvchi ta’riflar juda ko‘p. Ikkisi ham bir maqsad va bir shaxs otiga mansub so‘zlar. Ularni so‘z sifatida yozilishi nuqtai-nazaridan bog‘lab turgan o‘zak “qiziq” sifati bo‘lsa, ajratib turuvchi qo‘shimcha bu “-*chi*” affiksidir.

Biror-bir sifat turkumiga kiruvchi so‘zlarga “-chi” qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan kasb-hunar nomlari yasash an’anasi mavjud bo‘lsa, “qiziq” va “qiziqchi” so‘zlaridagi differensiya qanday bo‘lishi to‘g‘risida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori v.b., filologiya fanlari nomzodi Ravshan Jomonovning fikrlari quyidagicha:

“Endi gap qiziqchilik san’ati haqida ketayotgan ekan, buni sof lisoniy nuqtai-nazardan olib qarash mumkin. Bu o‘zbek tilida eng faol qo‘llanadigan “qiziq” so‘zidan yasalgan yasama so‘z hisoblanadi. “Qiziq”ning lug‘aviy ma’nolarini izohli lug‘atdan ko‘rishingiz mumkin. Uning bir qator ma’nolari bor. Ayni shu “qiziq” so‘ziga o‘zbek tilida eng faol so‘z yasovchi qo‘shimchalardan biri “-*chi*” qo‘shiladi. Natijada “qiziqchi” kabi yangi bir so‘z yuzaga keladi. “-*chi*” qo‘shimchasi o‘zbek adabiy tilida eng sermahsul qo‘shimcha. Odatda, qo‘shimchalar “so‘z yasovchi” deyishimizning sababi, yangi lug‘aviy ma’noli so‘z yasaydi. Mazkur so‘zda ham “qiziq” sifatidan “qiziqchi” kabi shaxs oti yasalgan. “Qiziqchi” ma’nosidagi ushbu so‘z “Qiziqchilik san’ati”ga o‘tgandan so‘ng ayrim bir ma’no o‘zgarishlariga duch kelishi mumkin. Masalan, temirchi deganda temirdan biror buyum yasaydigan usta tushuniladi. Mana yana “Ertalab mahallamizga sutchi keldi” – deymiz. Ya’ni sut olib kelib sotadigan ma’lum bir shaxs tushuniladi. Ishchi deymiz umumiy ma’noda, (rabochiy ma’nosida) ya’ni ishlayotgan shaxs. Mana shulardan ko‘rinadiki “-*chi*” bir ma’noda emas, bir necha ma’noda biror kasb, faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxsning nomini bildiradi. Aynan sizni qiziqtirayotgan “qiziqchi” so‘zida ham, nazarimda, huddi shu ma’nolar mujassamlashgan.

“-*chi*” bilan birga boshqa tillardan o‘zlashgan “-*shunos*” qo‘shimchasi ko‘p o‘rinlarda sinonim sifatida qo‘llaniladi. Masalan, biz “tilshunos” deymiz va “tilchi” deymiz. Ikkalasi ham aslida bitta ma’noni bildiradi. Lekin, “-*shunos*”da bu forsiy tildan o‘zlashgan qo‘shimcha ko‘proq ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi shaxs ko‘zda tutiladi. Ya’ni, olimlik

martabasi bor odam "tilshunos"ga o'tadi. Agar "tilchi" deb ishlatadigan bo'lsak, bu o'z-o'zidan til amaliyoti bilan shug'ullanadigan, odatda o'qituvchi, tarbiyachi va hokazolarga nisbatan qo'llanadi. Bunda ma'no nozikligi yuzaga keladi. Demak, men tilshunos hisoblayman o'zimni, tilchi emas. Chunki, ilmiy darajam bor, shu soha bilan muqum shug'ullanib kelaman. Ba'zida sof o'zbekona gapirgan holda o'zaro muomalada "tilchi olimlar" deb ham ishlatib ketamiz. Tilchilar, adabiyotchilar deb farqlab ketamiz. Agar shu yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, "qiziqchi" so'zi kasb oti, shaxs oti sifatida ishlatilishi to'g'ri. Masalan, uni "qiziqshunos" deb bo'lmaydi. Unga "-*shunos"*ni qo'shib bo'lmaydi. Qarang, bu yerda "qiziq" so'zi sifat turkumiga xosda. Unga "-*chi"*ni qo'shib biz yangi ot yasadik. Demak, "qiziqshunos" deb bo'lmas ekan, "qiziqchi" deyilar ekan. Bu yerda ham sahnada tomosha ko'rsatuvchi, ijro etuvchi, kishilarni kuldiruvchi ma'lum bir kasb egasi ko'zda tutiladi. Masalan, "sportchi" – sportning ma'lum bir turi bilan shug'ullanadi. "Doirachi" yana jins, tur tushunchasi bo'lyapti, maydalashdi. "Doirachi", "rubobchi" va hokazo. Lekin bularni umumiy olganda "san'atkor" deb ham ishlatamiz. Bu yerda "*kor"* qo'shimchasini ishlatamiz, "san'atchi" demaymiz. Aniq qilib aytganimizda "doirachi", "rubobchi", "g'ijjakchi" deb "-*chi"*ni ishlatar ekanmiz. Yana qaytaraman: hozir "qiziqchi" degandagi "-*chi"* qo'llanishi to'g'ri, bu ham o'sha bir san'at turini ko'rsatyapti, shuningdek, aynan o'sha tur bilan shug'ullanuvchi shaxsni ifodalayapti.

Ayni paytda bundan "qiziqchilik" so'zi ham yasalyapdi. "Qiziqchilik san'ati" deb ham ishlatamiz. "Qiziqchi" ma'lum bir shaxs otini ifodalasa, "qiziqchilik" endi bu san'at turiga o'tdi, ya'ni "qiziqchilik san'ati" bo'ldi. [5]

Bizning asosiy maqsadimiz "qiziqchi" va "qiziq" so'zlarining mazmun va mohiyatini to'g'ri anglash hamda muomalada ulardan o'z o'rnida asosli foydalanishga erishish bo'lganligi bois, "qiziqchi" va "qiziq" so'zlari – bu xalq tomonidan berilgan "unvon", bu "unvon"ga qachon taqdim etilishi hamda ushbu so'zlardan muomalada qachon to'g'ri foydalanish lozimligi bo'yicha ayrim takliflar mavjud.

Qiziqchilik san'ati bilan shug'ullanuvchi insonlarni amalga oshirgan ishlari va yaratgan ijodiy

asarlarini inobatga olgan holda, ularni quyidagicha nomlash maqsadga muvofiqdir:

- ijodkorlarning havaskorlik bilan bog‘liq bo‘lgan ilk qadamlaridan boshlab to o‘zining muhlislar auditoriyasiga ega bo‘lgunga qadar **I bosqich**, ya’ni ularni **“havaskor qiziqchi”** deb atash;

- so‘z bilan bog‘liq san’at turida faoliyat olib boruvchi hamda turli kulgili voqealarni o‘z mehnati va qobiliyatiga tayangan holda o‘zi ijod qilib, yaratishi hamda mualliflik asarlarini eng kamida o‘z hududida ijro etib, tomoshabinlar e’tirofiga erishish bu **II bosqich**, ijodkor shaxsni esa **“qiziqchi”** deb atash;

- o‘zbek kulgi san’atining gultojisi hisoblangan askiyada ishtirok etish qudratiga ega bo‘lish darajasi, ya’ni askiya payrovida o‘zini munosib tuta olish va askiya san’atining qonun-qoidalariga to‘liq rioya etib, uni ijro eta olish bu **III bosqich**, ijrochini **“so‘z ustasi”** deb atash;

- qiziqchilik yo‘nalishida o‘zining ko‘plab mualliflik asarlariga ega bo‘lish bilan birga, san’atning barcha soz, so‘z, qo‘shiq, raqs yo‘nalishlarida ijro etish hamda askiya san’atida o‘zi payrov yarata olish imkoniyatiga ega bo‘lish **IV bosqich**, ijodkorni esa **“qiziq”** deb atash.

Bu takliflar amaliyotga joriy etilsa, avvalo, qiziqchilik yo‘nalishida bir necha yillardan beri ijod qilib kelayotgan ijodkorlar hamda o‘z ijodini endigina boshlagan havaskor qiziqchilar orasidagi farqni anglash osonlashadi. Bundan tashqari, ijodkorlarning I-bosqichdan to IV-bosqichgacha bo‘lgan yo‘lda qanday ishlarni amalga oshirishi lozimligi ayon bo‘ladi. Eng muhimi, ushbu bosqichlarni bosib o‘tish jarayonida “ustoz-shogird” an’anasi davom ettiriladi. Bu esa o‘zbek qiziqchilik san’atini asl holicha saqlab, asrash, davom ettirish hamda kelajak avlodlarga bus-butunligicha yetkazishga zamin yaratadi. Zero, milliy madaniyatimizning bir bo‘lagi hisoblangan o‘zbek milliy san’ati turlarini asrash va avaylash barchamizning insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Qodirov. O‘zbek xalq tomosha san’ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1981, 36-bet.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, To‘rtinchi jild (Q-S). To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2022. 184-185-betlar.

3. Suhbat: San’atshunos olim, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi professori Ma’mur Umarov bilan 2024-yil 16-dekabrdagi suhbat.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, To‘rtinchi jild (Q-S). To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2022. 186-187-betlar.

5. Suhbat: O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori v.b., filologiya fanlari nomzodi Ravshan Jomonov bilan 2024-yil 23-dekabrdagi suhbat.